

**“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISHNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Baymuradova Zilola Alisherovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, amaliy mexanizmlari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Xususan, “Yashil makon” kabi dasturlar orqali ekologik muvozanatni tiklash, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishda xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish holati o‘rganilgan. Tadqiqotda kuzatish, taqqoslash, tizimli va analitik tahlil metodlari asosida mavjud holat baholanib, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatlari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, yashil makon, ekologik innovatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik.*

KIRISH

O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida barqaror rivojlanishga erishish — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq murakkab vazifa sanaladi. Hozirgi bosqichda iqtisodiy va ijtimoiy omillar jamiyat oldiga adolatli taraqqiyot, ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatning ekologik jihatlarga ta’sirini baholash zarurati, yangi konsepsiyalar va metodologik yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlari avlodlararo adolat, resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalarini dolzarb qilmoqda.

Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Ushbu hujjat iqtisodiy o‘tish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada, strategik rivojlanish maqsadlariga erishishda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini

amaliyotga tatbiq etish, nafaqat ekologik xavfsizlik, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikning ham muhim kafolatidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi qarori [2] ham maqolada asosiy manba sifatida foydalanilgan. Ushbu qarorda ekologik muammolarni milliy va xalqaro miqyosda hal etish, "yashil" ish o'rinlari yaratish orqali bandlikni ta'minlash va bozor mexanizmlaridan foydalangan holda barqaror rivojlanishga erishish masalalari ilgari surilgan.

Karimov X. (2020) tomonidan tayyorlangan "Kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning ahamiyati" nomli ishda O'zbekistonda ta'lim tizimi va malaka oshirish faoliyatining kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil etilgan [3].

Vaxabov A.V. va Xajibakiev Sh.X. tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisodiyot" darsligida [5] ushbu tushunchaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, tamoyillari, moliyalashtirish mexanizmlari, "yashil energetika", ekologik siyosat va xorijiy tajribaga asoslangan iqtisodiy modellar yoritilgan. Darslikda O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlari batafsil ochib berilgan.

Vashalova T.V.ning "Ekologicheskie osnovy prirodopolzovaniya. Ustoychivo razvitiye" nomli qo'llanmasida esa yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi ifloslanish, resurslarning tugashi, uglevodorodga bog'liqlik va yuqori texnologiyali innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi orqali asoslab berilgan.

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bo'yicha xalqaro adabiyotlarda ham muhim yondashuvlar mavjud. Jumladan, 1989-yilda Buyuk Britaniyada Davlat uchun yozilgan "Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejasi" (Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya, Edward B. Barbier) hisobotida ushbu atama ilk bor ishlatilgan. Keyinchalik, BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan "yashil iqtisodiyot" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirish, ekologik xavflar va tanqisliklarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir [Navstrechu "zelenoy" ekonomike. UNEP/Grid Arendal, 2011, s.17].

Iqtisodiy fanlar doktori M. Pardaevning fikricha, yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitni muhofaza qilgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimdir. (Manba: zarnews.uz)

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish kontsepsiyasi Ye.R. Lindal va J.R. Xikslarning iqtisodiy yondashuvlariga asoslanadi (D.B. Smirnov, 2015). Ularning

fikricha, yalpi daromad ekologik resurslarni saqlagan holda ishlab chiqarilishi lozim. Bunda ekologik mahsulotlar, chiqindilarni boshqarish va resurslardan tejamkor foydalanish muhim omil sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga bo'lgan munosabatni tubdan yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yashil makon" umumxalq loyihasi asosida mamlakat hududlarida millionlab daraxt ko'chatlari ekilib, yashil hududlar soni va sifati yil sayin ortib bormoqda.

Mazkur loyiha orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish, iqlim o'zgarishiga moslashish, karbon chiqindilarini kamaytirish va barqaror yashash muhitini shakllantirishga qaratilgan kompleks ishlar yo'lga qo'yilgan. Bu nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham ijobiy natijalar bermoqda. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy iqtisodiy faollikning oshishi va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali yashil iqtisodiy mexanizmlar tobora kuchaymoqda.

2022–2024-yillar davomida amalga oshirilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, "yashil" tashabbuslarning amaliyotga joriy qilinishi aholining farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Daraxt ekish, suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlar bo'yicha iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshgan.

1-rasm. “Yashil qitisodiyot” tamoyillari



Shuningdek, yashil iqtisodiyot elementlari mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, ekologik jihatdan toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Jahon amaliyotidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ulardan foydalanish orqali O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qiladigan zamonaviy, ekologik yondashuvlar shakllanmoqda.

O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikka erishish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Ushbu jarayon mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasini samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval.

Eko rivojlanish modeli

IQTISODIY	IJTIMOIIY	EKOLOGIK
Barqaror iqtisodiy o‘shish	Ijtimoiy tenglik	Tabiatni muhofaza qilish
Resurslardan oqilona foydalanish	Kambag‘allikni kamaytirish	Ekotizimlarni saqlab turish
Yashil investitsiyalar	Aholining turmush darajasini oshirish	Uglerod chiqindilarini kamaytirish

Ekologik innovatsiyalar	Atrof-muhit toza saqlashda ishtirok etish	Iqlim o'zgarishini yengillashtirish
-------------------------	---	-------------------------------------

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishda davlat tomonidan belgilangan normativ-huquqiy asoslar, strategiyalar va dasturlar o'z amaliy natijasini bera boshlagan. Xususan, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishlari hamda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar asosida ekologik va iqtisodiy yo'nalishlar uyg'unlashtirilmoqda.

So'nggi yillarda olib borilgan siyosat natijasida, yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, quyosh va shamol energetikasi loyihalari jadal rivojlanmoqda. Ushbu yo'nalishda investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar, soliq yengilliklari va yer ajratishdagi tartiblar yashil iqtisodiyotning kengayishiga qulay zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash sanoatining shakllanishi, zamonaviy chiqindi poligonlari va qayta ishlash texnologiyalarining joriy qilinishi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlamoqda, balki iqtisodiyotning yangi tarmog'i sifatida ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qilmoqda.

Aholining ekologik savodxonligini oshirish maqsadida olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, ta'lim tizimiga ekologik fanlarni integratsiya qilish va OAVdagi muhokamalar orqali fuqarolarning ongida ekologik madaniyat shakllanmoqda. Bu esa jamiyatning "yashil" tashabbuslarda faol ishtirokini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish yo'lida bosib o'tilgan bosqichlar samarali bo'lgan, ammo kelgusida bu jarayonni yanada chuqurlashtirish uchun tizimli monitoring, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, hududlar kesimida ekologik salohiyatni aniqlash va mahalliy innovatsion yechimlarni qo'llash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va strategik qarorlar mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Yashil makon" kabi dasturlar orqali ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan samarali foydalanish, aholi salomatligini muhofaza qilish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Shuningdek, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmining oshishi ekologik yuklamani kamaytiribgina

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VI son, May

qolmay, iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlayapti. Aholining ekologik savodxonligi oshib borayotgani esa "yashil" g'oyalarni keng jamoatchilik ongiga singdirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Yashil iqtisodiyotning huquqiy asoslarini mustahkamlash: mavjud qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga mos holda yangilash va takomillashtirish zarur.

2. Hududiy darajadagi yashil strategiyalarni ishlab chiqish: har bir viloyat va tuman uchun ekologik salohiyat, tabiiy resurslar va iqlim sharoitiga mos individual yashil rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish lozim.

3. Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish: ekologik loyihalar uchun maxsus grantlar, subsidiyalar va "yashil" obligatsiyalar bozorini rivojlantirish tavsiya etiladi.

4. Ekologik innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash: ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va biznes tuzilmalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni kuchaytirish kerak.

5. Ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirish: maktabgacha ta'limdan boshlab barcha bosqichlarda ekologik bilim va madaniyatni singdiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish lozim.

6. Monitoring va baholash tizimini kuchaytirish: yashil iqtisodiyotga oid loyihalarning samaradorligini baholovchi raqamli platformalarni joriy etish va ularni ochiqlik tamoyili asosida yuritish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston "yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilmoqda, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar, sog'lom muhit va ijtimoiy barqarorlik sari dadil qadamlar tashlamoqda. Bu yo'nalishda izchil siyosat yuritilishi va amaliy harakatlar davom ettirilishi mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. 2023 yil 30 aprelda yangi tahrirda qabul qilindi.
2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrda "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" to'g'risidagi PQ-4477-son Qarori.razvitiyu i iskoreneniyu bednosti / Shtayner A., Ayris R., Bessa S. I dr: YuNEP/Grid Arendal, 2011. C. 17.

3.Greening the Global Economy. Hardcover- November 13,2015. – 176 p.

4. A.E.Ergashev va b. – T.: Baktria. Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. Darslik. press, 2016.-296b.

5.Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X. Darslikda “Yashil iqtisodiyot” Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b. .

6.Jo'raev T.T., Jumanov D “O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari” nomli ilmiymaqola. Manba: “Jahonda barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish mexanizmi va dastaklari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-T.: ”Universitet”. 2018. 239 b. -20 b.

7.Yormonqulova, N. (2024). Iqtisodiy o'sish omillarini takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishish. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 10(10),109–112.<https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>.

8.Salamov, I., Javmanov, J., Ummatov, B., & Bekpolatov, S. (2024). Raqamli iqtisodiyotning o'rni va joriy etishdagi imkoniyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).

9.Salamov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmog'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniytlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).

10.Ahmatova, Q., Sunnatullayev, M., & Salamov, I. (2024). Bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishni yuzaga keltiruvchi sabablar hamda ularning yechimi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).

11.Internet saetlari.